Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilishning sabablari haqida professor M.D. Shargorodskiyning fikrini keltirib o'tish joiz. Unga ko'ra, "suitsidal xulq-atvor muammosini o'rganishning ahamiyati bir nechta sabablar bilan bog'liq: o'z joniga qasd qilish va qayd etilgan o'z joniga qasd qilishga urinishlar sonining o'sishi; prognoz qilingan suitsidal xulq-atvor patogenezi bilan bevosita bog'liq bo'lgan tushkunlik holatlari sonining o'sishi, bu esa suitsidal ko'rinishlarning muqarrar ravishda ortishiga olib keladi hamda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat dinamikasi bilan izohlanadi" (Vaulin, 2012).

Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilishning kelib chiqish sabablari "qulay" sharoitlarda o'z joniga qasd qilish to'g'risida qaror qabul qilishga yordam beradigan omillarning mavjudligi bilan aniqlanadi. Uning o'z joniga qasd qilishga moyilligi shaxsning bunday vaziyatni qanday idrok etishi va baholashga tayyorligi bilan belgilanadi (Bozrov et al., 2015).

Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilishning kelib chiqish sabablari odatda o'z joniga qasd qilish fakti sodir bo'lganidan keyin aniqlanadigan holatlardir. Boshqacha qilib aytganda, motiv (o'z joniga qasd qilish to'g'risidagi qaror) shaxsni o'ylash va qaror qabul qilishga undaydi, sabablar esa, o'z navbatida, o'z joniga qasd qilish uchun "vosita" bo'lib xizmat qiladi.



Bu borada Y.V. Buryakovskaya shunday degan: “O‘z joniga qasd qilish har doim ham motivning paydo bo‘lishidan keyin sodir bo‘lavermaydi, motivatsiya – o‘zgaruvchan miqdor, sabab esa qaytib kelmaydigan nuqta” (Buryakovskaya, 2020).

Ko‘pgina olimlar o‘z joniga qasd qilishning sabablari sifatida oilaviy nizolar, kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq nizolar, moddiy farovonlikning pasayishi yoki yo‘qolishi (iqtisodiy sabablar), shaxsning o‘z-o‘zidan nafratlanishi, jismoniy holati, kasalligi va boshqa omillarni keltirib o‘tadi. Ayrim adabiyotlarda esa o‘z joniga qasd qilish sabablari sifatida shaxsda yomon illatlarning (giyohvandlik, alkogolizm va boshqalar) mavjudligi ko‘rsatilgan (Voytsekh, 2007).

Bundan tashqari, o‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining quyidagi o‘ziga xos belgilari mavjudligi qayd etilgan: 1) xulq-atvor bilan bog‘liq belgilar (jamiyatdan begonalashish); 2) kognitiv belgilar (boshqalardan kelib chiqadigan dushmanlik hissi); 3) hissiy belgilar (nomutanosiblik, norozilik); 4) kommunikativ belgilar (Guseva, 2018).

Ko‘rinib turibdiki, ikki hodisa, ya‘ni o‘z joniga qasd qilish va o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Jabrlanuvchiga jismoniy yoki ruhiy azob berish uning o‘z joniga qasd qilish to‘g‘risida aniq qaror qabul qilishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotda keltirilgan sud amaliyoti misollarida o‘z joniga qasd qilish aybdor tomonidan jabrlanuvchiga nisbatan muntazam ravishda salbiy ta‘sir ko‘rsatish natijasida ham, bir martalik ta‘sir oqibatida ham sodir bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan.

Y.K. Volkonskaya o‘z joniga qasd qilishning quyidagi sabablarini aniqlaydi: tibbiy (turli deviant ko‘rinishlar: alkogolizm, giyohvandlik, ruhiy kasalliklar va buzilishlar va boshqalar), psixologik (uzoq muddatli travmatik holat, ma‘naviy travma va boshqalar), iqtisodiy (ishsizlik, moliyaviy muammolar va boshqalar), ijtimoiy (ijtimoiy himoyasizlik va boshqalar), shaxsiy (shaxsiy nizolar, shu jumladan oiladagi kelishmovchiliklar va boshqalar), maishiy (beqarorlik va boshqalar), kriminologik (shaxs sha‘ni va qadr-qimmatiga tajovuz va boshqalar), genetik (irsiyat bilan bog‘liq) (Volkonskaya, 2011).

Fikrimizcha, bunday tasnif ortiqcha bo‘rttirib yuborilgandek ko‘rinadi. Sababi biz yuqorida o‘z joniga qasd qilish motivlari va sabablari, ayrim o‘xshashliklarga qaramay, turli xil kelib chiqishga ega ekanligi hamda turli bosqichlarda yuzaga kelishini ta‘kidlagan edik. Motiv – potensial suitsidentning ichki ruhiy holati bo‘lib, u atrofdagi voqelikni subyektiv-salbiy idrok etish va ichki ziddiyatni hal qilishda umidsizlikning paydo bo‘lishi natijasida shakllanadi. Bundan tashqari, motivatsion soha situatsion xarakterga ega, ya‘ni o‘z joniga qasd qilish qarori o‘zgaruvchan qiymat hisoblanadi. O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazishda esa o‘z joniga qasd qilish sabablari aybdor tomonidan jabrlanuvchiga nisbatan sodir etilgan salbiy xarakterdagi noqonuniy tajovuzlar fonida rivojlangan jabrlanuvchining psixo-emotsional holati bilan bog‘liq bo‘ladi.

C.A. Sokolovning fikricha, ba‘zi hollarda o‘z joniga qasd qilishga sabab bo‘ladigan noxush xabarlarga uyda ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar, sevgan insonining yoki turmush o‘rtog‘ining vafosizligi va boshqa shu kabi ruhiy muvozanatdan chiqaruvchi holatlar haqidagi ma‘lumotlar kiradi.

Olim o‘z fikrini davom ettirib, “Nizolar bo‘yicha o‘tkazilgan kriminologik tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘z joniga qasd qilishni 5 ta asosiy guruhga tasniflash mumkin:

- ta‘lim bilan bog‘liq nizolar;
- shaxsiy-oilaviy nizolar;
- suitsidentning g‘ayriijtimoiy xulq-atvori bilan bog‘liq nizolar;
- salomatlik holati bilan bog‘liq nizolar;

- moddiy-maishiy sabablar va boshqa motivlar bilan bog'liq nizolar.
- Bundan tashqari, ta'lim bilan bog'liq nizolar quyidagi sabablar bilan izohlanadi:
- mashg'ulotlar paytida asossiz jismoniy va ruhiy zo'rqiqlar;
 - shaxslararo o'zaro munosabatlar qoidalarining buzilishi;
 - o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ziddiyatlar.
- Shaxsiy-oilaviy nizolar asosan quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi:
- sevgan qizning (xotinning) javobsiz muhabbati yoki xiyonati;
 - ajralish;
 - kasallik, qarindoshlar va yaqinlarning o'limi;
 - jinsiy noqobillik" (Tsokolov, 2013).

Oiladagi nosog'lom ruhiy muhit shaxs rivojlanishida ijtimoiy-psixologik deformatsiya omili sifatida namoyon bo'ladi va uni o'z joniga qasd qilishga "undaydi".

O'z joniga qasd qilish va o'z joniga qasd qilishga urinish muammolari bilan shug'ullangan bir qator olimlar – M.G. Davletshin, G'.B. Shoumarov, S.A. Oxunjonova, A.G. Ambrumova, L.I. Pustavalovalarning fikricha, ushbu holat sodir etilishida oilaviy omillarning o'rni quyidagilar bilan izohlanadi:

- ilk bolalik davrida oilada otaning yo'qligi;
 - oilada farzandga ona mehrining yetishmasligi;
 - oilada ota-onalik nufuzining yetarli darajada shakllanmaganligi;
 - oilada matriarxal uslubdagi munosabatlarning ustunligi;
 - oilaviy munosabatlarda o'z o'rnini topa olmagan katta yoshli oila a'zolarining "o'zligini" tasdiqlash maqsadidagi turli urinishlari:
- a) emotsional "portlash";
 - b) bolaga nisbatan jazo usullarini qo'llash;
 - d) hatto bolaga tan jarohati yetkazish;
- ajrashgan oilalar;
 - oilada yoki oila shajarasida o'z joniga qasd qilgan yoxud qasd qilishga uringan shaxsning mavjudligi va hokazolar (Barotova, 2015).

Suitsidning asosiy sababi jamiyat tomonidan shakllantirilgan qadriyatlar va an'analarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zan mohiyati mavhum bo'lgan ayrim an'analarga haddan tashqari bog'lanib qolish holatlari kuzatiladi. Sotsiologiyada esa har bir yosh davri o'ziga xos psixologik xususiyatlarga egaligi e'tirof etiladi. Lekin jamiyat qaysi yoshdagi shaxsga qanday munosabatda bo'lish kerakligini yetarli darajada anglab yetmagan. Bolaga qanday, o'smiringa esa qanday muomala qilish zarurligi haqidagi tushunchalar amaliyotda to'liq shakllanmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'smirlar psixologiyasining mohiyati va o'ziga xos jihati ularning ongi va psixikasining moslashuvchan, ta'sirchan bo'lib, ko'plab axborotni tez o'zlashtira olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. O'smirlik davrida iqtisodiy va siyosiy qarashlar, estetik dunyoqarash barqaror shakllana boshlaydi, shuningdek o'zini anglash va fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Estetik dunyoqarash bilan bog'liq qoidalar, milliy urf-odatlar, an'analardan va qadriyatlar ham o'smirlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Afsuski, jamiyat ba'zan bolani to'laqonli shaxs sifatida qabul qilmaydi, ularning fikri va ehtiyojlari yetarlicha inobatga olinmaydi. "Yo'q, mumkin emas" kabi qat'iy taqiqlar esa bolalar hayotida keng uchraydi. Nega aynan o'tish davrida suitsid holatlari ko'proq kuzatiladi? Chunki oddiy bir shapaloq, olib berilmagan kiyim yoki rad etilgan muhabbat ham o'smirning o'ta nozik ruhiyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu davrda o'qiladigan kitoblar va tomosha qilinadigan filmlar ham muayyan psixologik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi



lozim. Biroq amaliyotda o'smirlarning axborot qabul qilishi ko'pincha nazoratsiz kechadi. Ota-onalar ko'pincha bandlik va charchoq sababli farzandlari bilan yetarlicha muloqot qila olmaydi, ba'zan esa oilaviy muammolar ham yuzaga keladi.

O'qituvchilarning esa har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanishga vaqti yetarli emas, chunki sinflarda o'quvchilar soni ko'p. Shunday sharoitda bola bilan individual ishlash murakkablik tug'diradi. Muammo murakkab va ko'p omilli xarakterga ega bo'lsa, uning yechimi ham kompleks yondashuvni talab etadi.

Yosh avlodning o'z hayotiga erta nuqta qo'yishga urinishi faqat bugungi yoki kechagi kun muammosi emas (Niyozova, 2020). Ammo muammoning ayrim jihatlaridan shuni ko'rish mumkinki, qog'oz va hisobotlarda bola manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilotlar ko'p bo'lsa-da, amaliy natija har doim ham yetarli emas.

Suitsidning naslga bog'liqligi masalasi bo'yicha mutaxassislar orasida turli qarashlar mavjud. Ko'pchilik olimlar suitsid irsiy xususiyatga ega emas, deb hisoblaydi. Biroq ayrim tadqiqotlar yaqin oila a'zolari orasida suitsid holatlarining ko'proq uchrashi mumkinligini qayd etib, bu hodisaning ma'lum darajada irsiy moyillik bilan bog'liq bo'lish ehtimolini ham inkor etmaydi. Shuningdek, yaqin qarindoshlar orasidagi suitsid holatlari ba'zan taqlid (imitatsiya) orqali ham yuzaga kelishi mumkin (Ibodullayev, 2024).

Suitsid va ta'lim darajasi o'rtasidagi bog'liqlik ham alohida o'rganiladi. Oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar orasida suitsid ko'proq uchrashi qayd etiladi. Ta'lim darajasi va kasbiy malaka qanchalik yuqori bo'lsa, suitsid xavfi shunchalik past bo'ladi, degan qarashlar mavjud. Biroq ijtimoiy muhit va shaxsga salbiy ta'sir etuvchi omillar bu ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarda ham suitsid ko'rsatkichlarining yuqoriligi kuzatiladi. Ta'lim va iqtisodiy jihatdan zaif hududlarda, jumladan, Afrika, Hindiston, Braziliya va ayrim Osiyo mintaqalarida ham suitsid holatlari uchraydi. Ba'zi izolyatsiyalangan jamoalarda esa suitsid marosimiy shakllarda namoyon bo'lishi ham kuzatilgan (Ibodullayev, 2022).

Ba'zi kasb egalari, ya'ni yuqori stress va hissiy zo'riqish talab qiladigan sohalarda ishlovchilar orasida suitsid xavfi yuqori bo'lishi mumkin. Xususan, sog'liqni saqlash tizimida xirurglar, reanimatologlar va psixiatrlar; shuningdek, aviadispatcherlar, uchuvchilar, shaxtyorlar, bankirlar, menejerlar, sudyalar, harbiylar va politsiyachilar xavf guruhiga kiradi. Aksincha, kutubxonachilar, bog'cha tarbiyachilari, muzey xodimlari va o'qituvchilar orasida suitsid nisbatan kam uchraydi.

Suitsidning ruhiy kasalliklar bilan bog'liqligi ham muhim omillardan biridir. Ular orasida depressiya yetakchi o'rinda turadi. Shuningdek, shizofreniya, alkogolizm, narkomaniya va boshqa ruhiy buzilishlar ham muhim xavf omillari hisoblanadi. Saraton, sil, OITS kabi og'ir va uzoq davom etuvchi kasalliklar ham suitsid xavfini oshirishi mumkin. Bu jarayonda shaxsning psixologik tipi, oilaviy muhit, diniy e'tiqodi va ijtimoiy-psixologik holati ham muhim rol o'ynaydi.

Davlat, din va jamiyat omillarining suitsidga ta'siri ham turlicha namoyon bo'ladi. Rivojlangan davlatlarda ham, iqtisodiy jihatdan orqada qolgan hududlarda ham suitsid darajasi yuqori bo'lishi mumkin. Biroq islom diniga qat'iy amal qilinadigan jamiyatlarda o'z joniga qasd qilish holatlari nisbatan juda past uchraydi. Islom dini suitsidni keskin qoralaydi va bunday holatlarda diniy marosimlarning bajarilishini ham cheklaydi. Shu bois islomiy e'tiqod kuchli bo'lgan jamiyatlarda suitsid darajasi pastligi kuzatiladi.

Demokratik jamiyat va ijtimoiy adolat qonunlariga amal qilinadigan, inson huquqlari e'tirof etiladigan, inson manfaati ustun qo'yiladigan hamda qonun ustuvorligi ta'minlangan

davlat va jamiyatda o'z joniga qasd qilish holatlari o'ta past bo'ladi. Suitsidning mavsumga ham bog'liqligi mavjud bo'lib, statistik tahlillarga ko'ra, suitsid bahor va yoz oylarida ko'proq, qishda esa kam kuzatiladi. Suitsidga moyil shaxslarning o'zaro muloqoti ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'z joniga qasd qilishga moyil shaxslar bir-biri bilan o'zaro muloqotda bo'lsa, suitsidga urinishlar soni oshadi. Bu holat, ayniqsa, yoshlar orasida ko'p uchraydi. Nikoh to'yi o'tkazilganiga ko'p bo'lmasdan o'z joniga birgalikda qasd qilgan kelin-kuyov haqida ma'lumotlar mavjud. Ular o'zini osgan. Yigitning onasi bilan suhbatda ular o'zlarini osishga hech qanday aniq sabab bo'lmaganini aytgan. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, qiz ham, yigit ham avvallari o'z joniga qasd qilishga urinib ko'rgan ekan.

Suitsidni amalga oshirish uchun qo'llanadigan vositalar. O'z joniga qasd qiladiganlar ko'pincha ko'p miqdorda dori ichish, o'zini osish, venasini kesish, transport vositalari tagiga o'zini tashlash, qurol-yaroqlardan foydalanish (ayniqsa, Milliy gvardiya va harbiylar orasida), baland binodan sakrash, zaharli vositalardan foydalanish kabi usullarga murojaat qilishadi. Qaysi vosita yoki usul tanlanishi, albatta, yashab turgan muhitga ham bog'liq.

Yirik shaharlarda baland binodan sakrash holatlari ko'proq uchrasa, qishloq hududlarida o'zini osish, dori yoki zaharli vositalardan foydalanish ko'proq kuzatiladi. Masalan, bir paytlar Hindistonning yirik plantatsiyalarida ishchilar o'z joniga qasd qilishda pestitsidlardan ko'p foydalangan.

Bunday holatlar ko'payib ketganligi sababli hukumat tomonidan maxsus qaror qabul qilinib, qishloq xo'jaligi sohasida zaharli pestitsidlarni qo'llashga cheklovlar joriy etilgan, maxsus himoya mexanizmlari ishlab chiqilgan va nazorat kuchaytirilgan. Bu esa ijobiy natija berib, ushbu soha xodimlari orasida suitsidlar soni keskin kamaygan.

Suitsidning oilaviy muhitga bog'liqligi ham uning sabablarini o'rganishni taqozo etadi. O'smirlar orasida suitsid ko'p uchrashi aksariyat hollarda oilada isterik tipdagi shaxs shakllanib borishi bilan bog'liq. Nega to'q oila farzandlari suitsidga ko'proq qo'l uradi? Buning negizida turli omillar yotadi. Bolalik davridan farzandni mehr bilan o'stirish yaxshi, biroq uni parallel ravishda mehnat va mas'uliyatga o'rgatmaslik oqibatida bola ulg'aygan sari ota-onadan mehrni ko'proq talab qilaveradi.

Biroq 3–5 yoshdan mehnatga o'rgatilmagan bola 12–15 yoshdan so'ng unga yot bo'lgan faoliyat turiga, ya'ni mehnatga qo'l urishni istamay qoladi. Buning oqibatida ota-ona bilan farzand o'rtasida nizolar paydo bo'ladi. Mehnat nimaligini bilmay ulg'aygan bola mehrning ham qadri va ma'nosini to'liq anglab yetmaydi. U farzandlik burchini unutadi. Bunday bola ota-onaga nisbatan javobgarlikni his eta olmaydi.

Farzand ong ostida ota-onaga nisbatan "Faqat ular menga e'tibor qaratishi kerak, men emas" degan qarash shakllanib qoladi. Natijada ota-ona o'zi bilmagan va xohlamagan holda isterik va egoistik shaxsni tarbiyalab qo'yadi. *Isteriya* esa suitsidning asosiy sabablaridan biridir.

Demak, bolaga ortiqcha mehr berish va uni mehnatga o'rgatmaslik oxir-oqibat suyuqlik farzandidan judo bo'lish bilan yakunlanishi mumkin. Ta'lim va tarbiya doimo birgalikda olib borilishi ta'kidlanadi. Biroq bu yerga mehnatni ham qo'shish lozim. "Ta'lim, tarbiya va mehnat" uchligi bolaning to'g'ri kamol topishida eng muhim tamoyil bo'lishi kerak. Kitob bolani ilmi qilsa, mehnat uni tarbiyalaydi, ota-onaga mehrli va mas'uliyatli qiladi hamda hayot mashaqqatlariga tayyorlaydi. Tabiiyki, bunday o'smirda o'z joniga qasd qilish fikri paydo bo'lmaydi, aksincha, u hayotdan zavqlanib yashaydi.

Suitsidga qarshi omillar ham muhimdir. Iqtisodiy jihatdan yaxshi ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga ega mustahkam oilalarda ham suitsid kam uchraydi. Agar har bir ota-ona



farzandiga kuniga bir soat vaqt ajratib, uni tinglasa va muammolariga sherik bo'lib, yechim topishga ko'maklashsa, o'smirlar orasida suitsid darajasi keskin kamayadi yoki umuman kuzatilmaydi. Albatta, buning uchun bola ishonchini qozonish zarur. Aks holda, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Shuningdek, qadimiy qo'l mehnati vakillari, ya'ni duradgorlar, o'ymakor ustalar va kosiblar orasida ham suitsid kam uchraydi. Chunki ular ilk bolalikdan mehnatga va hayot mashaqqatlariga o'rganib borishadi. Bunday kasb egalarining ustaxonalari ko'pincha uyda joylashgan bo'lib, tabiiyki, ularning farzandlari ham 3–5 yoshdan boshlab og'ir mehnatni o'z ko'zi bilan ko'rib boradi va o'zi ham unda ishtirok etadi. Og'ir bolalik davrini boshdan kechirib, hayotda o'z o'rnini topganlarda ham suitsid kam kuzatiladi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davrida front ortida og'ir sharoitlarda yashagan va mehnat qilganlar orasida suitsid juda kam bo'lgan yoki umuman uchramagan (Ibodullayev, 2022).

Fikrimizcha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi hamda ularning suitsid sodir etishi, ya'ni o'z joniga qasd qilishida asosiy mas'uliyat jamiyat va uning muhim bo'g'ini bo'lgan oilaga yuklanadi. Oila tuzilishidan boshlab, uning faqat moddiy jihati o'ylanadi xolos. Oila quruvchilar kimlar, ular qanchalik bir-biriga mosligi, mustaqil hayotda yashab ketishga qay darajada moslashganligi kabi masalalar kam yoki umuman e'tiborga olinmaydi. Bundan tashqari, ayrim psixologlarning fikricha, suitsid holatlarining asosiy sabablari o'zgalarga ta'sir o'tkazish istagi, oiladagi nizolar, ota-onaning xorijga ishlash uchun ketishi, voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishi, sodir etgan nojo'ya qilmishidan uyalish hamda qadr-qimmatning kamsitilishi kabi maishiy omillar bilan bog'liqdir.

Kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson turmush tarzidagi o'zgarishlar ko'pincha obyektiv ijtimoiy sabablar bilan bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitlar shaxs xulqiga har tomonlama salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Og'ir sharoitda yashovchi shaxslar bilan bir qatorda, yaxshi sharoitda yashovchilar ham jinoyat sodir etishi mumkinligi kuzatiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning obyektiv ahamiyatiga qaramay, me'yoriy munosabatlarning shakllanishida shaxsning qadriyatlar tizimi va boshqa ijtimoiy-psixologik omillar juda muhim, hatto hal qiluvchi rol o'ynashi aniqlangan.

Bu esa shaxsning intellektual hamda ruhiy-axloqiy negizining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Keyinchalik aynan shu omillar shaxsning qonuniy yoki jinoiy-g'ayriaxloqiy xulq-atvoriga asos bo'ladi. Chunki aynan shu yoshda dunyoqarashning asoslari shakllanadi va xulq-atvor qaror topadi (Fayzullayeva, 2002).

Mazkur jinoyatlarning bevosita sabablariga ko'pgina kriminologlar oilaviy-maishiy soha muammolari, o'qish va ishda tamagirlik motivatsiyasining shakllanishi, mastlik, giyohvandlik, qimor o'yinlarining qurboni bo'lish, maishiy qiziqishlar, ehtiyojlar va odatlar deformatsiyasi, mikro muhitda iste'molchilik, egoistik hamda zo'ravonlik muhitining mavjudligi kabi omillarni kiritadi (Niyozova & Salayev, 2023).

Ushbu jinoyatlarning sababi ijtimoiy, ya'ni jamiyat turmushi bilan bog'liqdir. Ularni umumiy jinoyatchilik sabablari va sharoitlari (umumiy sabablar), jinoyatlarning alohida turlari va guruhlari sabablari va sharoitlari (shaxsga qarshi jinoyatlar) hamda aniq jinoyatlarning sabablari va sharoitlari sifatida o'rganish zarur.

G.A. Avanesov (2011) jinoyatchilikning umumiy sabablarini jinoyatchilik manbalari deb ataydi.

Ayrim adabiyotlarda ta'kidlanishicha, jinoyatlarning umumiy sabablari ildizi ijtimoiy taraqqiyotdagi ziddiyatlar, iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy sohadagi noxush holatlar hamda

tarbiyaviy ishlardagi kamchiliklarda yotadi. Voyaga yetmaganlarning o'z joniga qasd qilishi yoki bunga urinish fakti bilan belgilanadi. Ma'lumki, ushbu holatda jabrlanuvchi mustaqil ravishda o'z joniga qasd qiladi. Agar o'lim sababi aniq belgilanmasa, aybdorni javobgarlikka tortish imkoni bo'lmaydi va tabiiy ravishda ushbu jinoyatning oldini olish choralari belgilash ham murakkablashadi.

O'z joniga qasd qilishning boshlang'ich nuqtasi sifatida potensial o'z joniga qasd qilishning motivatsion sohasini o'rganish uning asosiy sababini aniqlashga yordam beradi degan xulosaga kelish mumkin. Shu nuqtayi nazardan tadqiqot doirasida, birinchi navbatda, jabrlanuvchini boshqaradigan motivlarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bunday harakatlarni bartaraf etmay turib jamiyatda uchraydigan salbiy holatlar, jinoyatlarning oldini olishda natijalarga erishib bo'lmazligini anglashimiz lozim. Shuningdek, o'gay ota yoki ona bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik o'tkazish holatlari tufayli voyaga yetmagan bola o'z joniga qasd qilishi (oilaviy maishiy sohada sodir etilgan ushbu jinoyatning 14,7 foizini tashkil etadi). Ushbu holatda jinoyat qurbonlari ojiz ahvoldagi shaxslar sifatida yosh bolalar va o'smirlar bo'lganligi sababli biz ushbu holatlarga alohida urg'u berishimiz lozim. Ularga nisbatan yuzaga kelgan zo'ravonlik va rahmsiz muomalaning oldini olish uchun real imkoniyatning yo'qligi shundaki, shakllanmagan ruhiyatning mavjudligi, zulm, og'riqli vaziyatdan chiqish yo'lini topa olmaslik natijasida o'z joniga qasd qilish eng to'g'ri yo'l ekanligi to'g'risidagi fikrga kelishlari, shuningdek o'zlariga nisbatan yetkazilayotgan jabr-zulmni birovga aytishga qo'rqishlaridir.

Misol uchun, Sh. ismli shaxs o'gay qizi 13 yoshli A.ga nisbatan doimiy ravishda shafqatsiz muomalada bo'lib keladi. Bundan tashqari, uni jinsiy aloqa qilishga majburlab, bu haqda birovga aytsa, uni o'ldirishini aytib, ushbu qilmishini davom ettirib keladi. Bunday holatdan chiday olmagan A. bu azob-uqubatlardan qutulish maqsadida o'z joniga qasd qilgan (Tashkent Regional Criminal Court, 2021).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish holatlarining ortib borishiga bir qator omillar sabab bo'lmoqda. Jumladan, o'smirlarda hayotiy maqsad va qadriyatlarga bo'lgan munosabatning susayishi, ommaviy axborot vositalarining salbiy ta'siri, o'smirlarning deviant xulq-atvorini muntazam o'rganib boruvchi va tahlil qiluvchi markazlarning yetarli emasligi, shuningdek oila, maktab va mahalla hamkorligining amaliy jihatlariga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani ushbu muammoning asosiy sabablaridan hisoblanadi.

Ota-onalar uchun tavsiyalar:

1. O'smir yoshidagi farzandingizni diqqat bilan tinglang va uning fikrlarini hurmat qiling.

2. Farzandingizning qiziqishlari, maqsadlari va shaxsiy qarashlariga qiziqing.

3. Uning do'stlari va ijtimoiy muhiti haqida muntazam ma'lumotga ega bo'ling.

4. Muhim masalalarda u bilan maslahatlashib, fikrini inobatga oling.

5. Jismoniy va psixologik rivojlanish davrida zarur tavsiyalar va ko'makni taqdim eting.

O'z joniga qasd qilish nafaqat shaxsning o'zi, balki uning oilasi va jamiyati uchun ham katta ma'naviy hamda moddiy zarar keltiradi. O'z joniga qasd qilishga uringan yoki bunday holatni boshidan kechirgan o'smirlarda quyidagi salbiy oqibatlar kuzatilishi mumkin:

a) ma'lum muddat davomida o'qish yoki mehnat faoliyatini amalga oshira olmaslik;

b) surunkali og'riqlar va asabiy zo'riqishlarning kuchayishi;

d) jismoniy va ruhiy nogironlik holatlarining yuzaga kelishi;

e) takroriy suitsidal urinishlar xavfining ortishi.



Suitsidal xulq-atvor genezisida oilaning, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning hamda oilaviy muhitning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, oila-turmush doirasidagi zo'ravonlik natijasida voyaga yetmagan shaxslarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish holatlari yuqori ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi. Bunday jinoyatlarning yashirin sodir etilishi ularni aniqlash va oldini olishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Yuqorida bildirilgan fikr va xulosalarga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- o'smirlar bilan muloqotda ularning mustaqil shaxs sifatidagi ehtiyojlari va mas'uliyat hissini inobatga olish;
- ularga shaxsiy hudud va shaxsiy buyumlarini saqlash imkoniyatini yaratish;
- o'smirlar bilan samimiy va do'stona munosabatlarni shakllantirish hamda ularni muntazam qo'llab-quvvatlash;
- amaliyotchi psixologlar tomonidan o'smirlarning ruhiy holatini yaxshilashga qaratilgan trening va profilaktik tadbirlarni muntazam tashkil etish.

Shuningdek, ushbu yo'nalishda yangi mexanizmlar, nazorat tizimlari va faoliyat yo'nalishlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun maxsus tayyorgarlik dasturlarini tashkil etish:

- bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida malakali kadrlar sonining ortishiga;
- jabrlangan bolalar va ularning oilalariga ko'rsatilayotgan professional yordam samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Maktablar va mahalliy hamjamiyatlarda profilaktik tadbirlarni kuchaytirish ham muhim hisoblanadi. Xususan, o'quvchilarda psixologik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, stressga bardoshlilik, empatiya, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish hamda ijobiy muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish tavsiya etiladi. Bunday dasturlar bolalarning o'z his-tuyg'ularini anglashiga, qiyinchiliklarni yengib o'tishiga va muammolar yuzasidan o'z vaqtida yordam so'rash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, maktablarda zo'ravonlik va bullingning oldini olish alohida e'tibor talab qiladi. Ilmiy tadqiqotlar zo'ravonlik va bulling suitsidal xulq-atvor hamda turli psixologik buzilishlarning asosiy xavf omillaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Shu sababli ta'lim muassasalarida bullingga qarshi aniq siyosat, ichki qoidalar va jamoatchilikka qaratilgan targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish zarur.

Bugungi kunda O'zbekistonda bolalar va o'smirlar suitsidining oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- maktablarda psixologik profilaktika va ruhiy salomatlik dasturlarini joriy etish;
- tushkunlik va suitsidal xavf belgilarini erta aniqlash;
- bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha davlat strategiyalarining ijrosini ta'minlash;
- psixiatriya va psixologik yordam xizmatlarini takomillashtirish.

Mazkur chora-tadbirlar davlat organlari, ta'lim muassasalari, ota-onalar va keng jamoatchilikning o'zaro hamkorligi asosida amalga oshirilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi.

REFERENCES

1. Abdurasulova, Q. R. (2008). *Kriminologiya [Criminology]*. TSIL Publ.
2. Avanesov, G. A. (Ed.). (2011). *Kriminologiya [Criminology]*. YUNITI.
3. Barotova, D. (2015). *O'smirlarga psixologik xizmat ko'rsatish uslubi [Methods of providing psychological services to adolescents]*. Navruz Publ.
4. Bozrov, V. M., Kostovskaya, N. V., & Yavorskiy, A. A. (2015). *Kriminalnyy suitsid (psixologo-psixiatricheskie, ugovovno-pravovye i protsessualno-kriminalisticheskie aspekty) [Criminal suicide (psychological-psychiatric, criminal-legal and procedural-forensic aspects)]*. Yurlitinform.
5. Buryakovskaya, E. V. (2020). *Ugovovno-pravovaya i kriminologicheskaya kharakteristika dovedeniya do samoubistva [Criminal-legal and criminological characteristics of incitement to suicide]* (Doctoral dissertation). Saint Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of Russia.
6. Central Asian Bureau for Analytical Reporting. (n.d.). *Samoubistva v Tsentralnoy Azii [Suicides in Central Asia]*. CAA Network. <https://cabar.asia/ru/samoubistva-v-tsentralnoj-azii-infografika>
7. Dmitrieva, T. B., & Shostakovich, B. V. (2002). *Agressiya i psikhicheskoe zdorove [Aggression and mental health]*. Legal Center Press. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=19435671>
8. Ermolaeva, E. G. (2007). *Suitsid i prestupnost [Suicide and crime]* (Abstract of candidate dissertation). Moscow State Law Academy. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=30343211>
9. Fayzullayeva, V. (2002). Voyaga yetmaganlarning jinoyatoldi xulq-atvorini o'rganishning ahamiyati [The importance of studying pre-criminal behavior of minors]. *Under the Protection of the Law*, 6(78), 34–35.
10. Guseva, I. S. (2018). Psikhologicheskie markery suitsidalnogo povedeniya [Psychological markers of suicidal behavior]. *Victimology*, (4), 50–55.
11. Ibodullayev, Z. (2022). *Suitsid sabablari va profilaktikasi [Causes and prevention of suicide]*. Asab.cc. <https://asab.cc/uz/jenciklopediya/2299-suicid-sabablari-va-profilaktikasi.html>
12. Ibodullayev, Z. (2024). *Asab va ruhiyat [Nervous system and psyche]*. Zamin Nashr.
13. Kudryavtsev, V. N. (1991). *Konflikt i nasilstvennoe prestuplenie [Conflict and violent crime]*. Nauka. <https://play.google.com/store/books/details?id=vS9EAAAAMAA>
14. Niyozova, S. S. (2020). Reasons for suicide and the issue of responsibility. *International Journal of Pharmaceutical Research*, 12, 528–531.
15. Niyozova, S. S., & Salayev, N. S. (2023). *Kriminologiya (Umumiy qism) [Criminology (General part)]*. TSUL Publ.
16. Qalampir.uz. (2020). *Dunyoda o'z joniga qasd qilish holatlari kamaydi – tadqiqot [Suicide rates have decreased worldwide – study]*. <https://qalampir.uz/news/duneda-uz-zhoniga-k-asd-k-ilish-%D2%B3olatlari-kamaydi-tadk-ik-ot-123094>
17. Starshenbaum, G. V. (2006). *Addiktologiya: psikhologiya psixoterapiya zavisimostey [Addictology: Psychology and psychotherapy of dependencies]*. Kogito Center.
18. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). *Huquqbuzarliklar tahlili to'g'risidagi statistik hisobotlar [Statistical reports on the analysis of offenses]*. <https://stat.sud.uz>




19. Tashkent Regional Criminal Court. (2021). *Materials of criminal case No. 2021/26/12 from the archive of the Tashkent Regional Criminal Court.*

20. Tsokolov, S. A. (2013). Mery profilaktiki (predotvrasheniya) suitsida sredi studentov i kursantov akademicheskogo kompleksa [Measures for prevention of suicide among students and cadets of the academic complex]. *Bulletin of the Volga State Academy of Water Transport*, (34), 12–17.

21. Vaulin, S. V. (2012). *Suitsidalnye popytki i nezavershennye suitsidy (gospitalnaya diagnostika, optimizatsiya terapii, profilaktika) [Suicide attempts and incomplete suicides (hospital diagnostics, therapy optimization, prevention)]* (Abstract of doctoral dissertation). Moscow Research Institute of Psychiatry.

22. Volkonskaya, E. K. (2011). *Preduprezhdenie dovedeniya do samoubistva: ugovovno-pravovoy i kriminologicheskoy aspekty [Prevention of incitement to suicide: Criminal-legal and criminological aspects]* (Candidate dissertation). Academy of Law and Management of the Federal Penitentiary Service of Russia.

23. Voytsekh, V. F. (2007). *Suitsidologiya [Suicidology]*. Miklosh.



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).